

AZIZ YURTDOSHLAR “YONG‘IN XAVFSIZLIGI OYLIGI”DA FAOL BO‘LAYLIK**B.Sh. Abduraxmonov**

“Janubiy” KB OYoXTTEB boshlig'i podpolkovnik.

S.G‘. G‘ulomov

“Janubiy” KB OYoXTTEB inspektori leytenant.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14208312>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan “Yong‘in xavfsizligi oyligi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi O‘ta muhim va toifalangan ob‘ektlarda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish boshqarmasi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" DK ob‘ektlarda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish markazi "Janubiy" kon boshqarmasi va Navoiy sanoat maydoni ob‘ektlarida yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish bo‘limining faol ishtirok etib kelayotgani haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Favqulodda Vaziyatlar, yong‘in xavfsizligi, aholi, tadbir.

DEAR COMMUNITIES, LET'S BE ACTIVE IN "FIRE SAFETY MONTH".

Abstract. In this article, the "Fire Safety Month" held throughout our country and the Department of Organization of Fire Safety in Extremely Important and Classified Objects of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan "Navoi Mining and Metallurgical Combine" JSC and "Navoiyuran" DK Center for the organization of fire safety in facilities "Janubiy" mining department and Navoi industrial area It is said that the fire safety organization department is actively participating in the facilities.

Key words: Emergency situations, fire safety, population, event.

УВАЖАЕМЫЕ СООБЩЕСТВА, ДАВАЙТЕ БУДЕМ АКТИВНЫ В «МЕСЯЦЕ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ».

Аннотация. В данной статье «Месяц пожарной безопасности» проводится по всей нашей стране и Министерством по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан, отделом организации пожарной безопасности на особо важных и засекреченных объектах АО «Навоийский горно-металлургический комбинат». и Центр ДК «Навоиюрэн» по организации пожарной безопасности на объектах рудоуправления «Джанубий» и Сообщается, что отдел организации пожарной безопасности активно участвует на объектах Навоийской промышленной зоны.

Ключевые слова: Чрезвычайные ситуации, пожарная безопасность, население, событие.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yong'in xavfsizligi oyligini o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, har yili mamlakatimizda noyabr-dekabr oylari davomida yong'iniga qarshi kurash va xavfsizlik tadbirlari o'tkaziladi.

Qish faslida isitish moslamalariga bo'lgan ehtiyojning oshishi yong'in xavfini ortishiga sabab bo'ladi. Yong'inlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish yurtimizda joriy yilning 15 noyabridan 15 dekabriga qadar "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda. Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlari, shuningdek, aholi turar joylarining yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish va bu ishlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlashdan iborat.



Bu kabi tadbirlar yong'inlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirish hamda bu borada "Janubiy" KB OYOXTTEB xodimlari o'rtasida keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Yong'in xavfsizligi oyligini samarali o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi O'ta muhim va toifalangan ob'ektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish boshqarmasi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" DK ob'ektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi "Janubiy" kon boshqarmasi va Navoiy sanoat maydoni ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi ham keng ko'lamli ishlar olib borishmoqda desak xato bo'lmaydi.

Kuni kecha Janubiy Kon Boshqarmasida "Yong'in xavfsizligi oyligi" ni ko'tarinki ruhda o'tkazish hamda yong'in va favqulodda vaziyatlarni oldini olish maqsadida yong'in-texnik komissiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda "Janubiy" KB bosh muhandisi **T.N.Nizomov** hamda "Janubiy" KB OYOXTTEB boshlig'i podpolkovnik **B.Sh.Abduraxmonov** va

yong'in texnik komissiyasi a'zolari, maskan mansabdor shaxslari ishtirok etdi. Yig'ilishda mavjud muammolar, yutuqlar va kamchiliklar taqdim qilinib, mas'ul xodimlarga zarur tavsiyalar berildi.



Xususan, mamlakatimizda har yili tashkil etib kelinadigan yong'in xavfsizligi oyligi aholi punktlari, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarida yong'inlarning oldini olish hamda zarur profilaktik chora-tadbirlarni ko'rishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, yong'inlarni bartaraf etish yuzasidan amaliy mashg'ulotlarni namoyish etishdi.

Shu kunga qadar yong'in xavfsizligi qoidalari talablarini targ'ib qilish hamda bu borada fuqarolarning bilim ko'nikmalarini oshirish maqsadida qator uchrashuv va yig'ilishlar o'tkazildi.



Aholiga isitish pechlari va gaz moslamalaridan foydalanish qoidalari, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, fuqarolarni is gazidan zaharlanishi va boshqa noxush holatlarni oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadida turli ishlab chiqilgan tirajda eslatma, yo'riqnoma va plakatlar tarqatildi.



Tadbirda ishchi-xodimlarga yong'inlar va turli xildagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishi va bunday hollarda qanday harakatlarni amalga oshirish lozimligi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilib, yo'l-yo'riqlar ko'rsatilmoqda. Shuningdek, tadbir davomida ishchi-xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida yong'in o'chirish mashg'uloti o'tkazilib, sohada qo'llanilayotgan texnikalar va ularning imkoniyatlari namoyish etilmoqda.

Ishchi-xodimlarga sanoat va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etish bo'yicha yana bir bor eslatmalar berib o'tilmoqda. Eslatib o'tamiz, "Yong'in xavfsizligi oyligi"ni na'munali va xavfsiz o'tkazish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda.

REFERENCES

1. Ushbu maqola shaxsiy fikr va mulohazalar asosida tuzildi. 20.11.2024